MAHSULOTLAR ETKAZIB BERISHGA
OID SHARTNOMA № 55

Nurafshon sh "31" oktyabr 2022 yil

"QUALITY DEVICE BUSSINES" MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining ustavi asosida ish yurituvchi direktor Jamalov Shoxzod nomidan bir tomondan va Bulung'ur tuman XTB, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi mudir Z.Aliqulova nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga Bulung'ur tuman XTBga qarashli 42-maktabga tikuv mashinalari etkazib berish (keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmatlarini ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

| № | Nomi | O'lchami | Soni | Narxi | Jami narxi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Universal tikuv mashinasi | Dona | 10 | 5 699 000 | 56 990 000 |
| | Жами | | | | 56 990 000 |

Summa so'z bilan: 56 990 000 (Ellik olti million to'qqiz yuz to'qson ming ) so'm 00 tiyin. QQS siz.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" " Buyurtmachi "ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini:
- "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish

2.1.5. SHartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjetdan ajratilgan mablag'lari "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik boshqarmasidan ro'yhatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish:

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko`rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko`rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo`l qo`ygan bo`lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda tekin tuzatib berish.

## 3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnoma bo`yicha Bajaruvchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori ( 24.10.2022dagi 162493 -son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig`imlar va ajratmalarni o`z ichiga olgan holda joriy narxlarda umumiy summasi 56 990 000 (Ellik olti million to'qqiz yuz to'qson ming ) so`m 00 tiyin deb belgilandi. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) uchun oldindan to`lov miqdori 30 % ni tashkil qiladi.

3.2. Qolgan 70 % foizlik to`lov schet faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan shartnomani amal qilish muddati tugaganga qadar to`liq amalga oshirishilishi shart.

3.3. Ko`rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko`chirish yo`li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

## 4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda 20 kun muddatda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o`z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo`yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtmachi"ning Hisob-kitob hujjatida g`aznachilik bo`linmalarining shtampida ko`rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to`lash bo`yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko`rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko`rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko`rsatilmagan "Xizmatlar" o`rnini to`ldirish sifatida qaralmaydi va ko`rsatilmagan "Xizmatlar"ning o`rni to`ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo`yicha ko`rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko`rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo`yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko`rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko`rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko`rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko`rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko`rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro`yxatdan o`tkazish daftarini yuritadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko`rsatish sanasini o`zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko`rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko`rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto`g`ri aniqlanishi, ularning qiymati noto`g`ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko`rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto`g`ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to`laydi.

5.2. Agar ko`rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko`rsatilgan, sifati zarur darajada bo`lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to`laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko`rsatish bo`yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko`rsatilishi kerak

bo'lgan "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmasligi natijasida etkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi. biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi. biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli shartnoma bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan shartnomaning "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi..

5.9. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni. shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga(buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari. o'z kuchi bilan. lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga. yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishgahaqlidir.

5.10. Neustoyka (jarima. penya) to'laganligidan qat'iy nazar. shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

## 6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda. tomonlar. qoidaga ko'ra. mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## 7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7.2 SHartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

7. 3 Mazkur shartnoma 56990000 (Ellik olti million to'qqiz yuz to'qson ming ) so'm 00 tiyinlik №55-sonli shartnoma 2022 yil «31» oktyabrda 2 nusxada tuzilgan bo'lib 2022 yil «31» oktyabrdan 2022 yil «31» dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib. Bulung'ur tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi

## 8. FORS-MAJOR.

8.1. Taraflardan biri shartnomani engib bo`lmaydigan kuch ya'ni. favqulodda va muayyan sharoitda oldini olib bo`lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar. noqulay ob-xavo sharoiti. xukumat tadbirlarida xokimiyat organlarining qarorlari. xarbiy nizolar. ichki tartibsizliklar va boshka tabiiy ofatlar) tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo`lmaydi.

8.2. Mazkur shartnoma bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar "O`zbekiston Respublikasi Xo`jalik yurituvchi sube'ktlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`g`risida"gi qonun bo`yicha javobgar bo`ladi.

## 9.КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ШАРТЛАШУВ.

9.1 Ushbu shartnomaning har bir tomoni o`ziga nisbatan qo`llaniladigan barcha. shu jumladan O`zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqidabir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

9.2 Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo`lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari ,direktori.xodimlari.agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida xarakat qilib.Ta'minotchi korxonaning hamda O`zbekison Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## 10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko`ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda. tomonlardan birining talabi bo`yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnomaga har qanday o`zgartirish va qo`shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

10.4. Mazkur shartnoma. unga o`zgartirishlar (qo`shimchalar) ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

## 11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

| "BAJARUVCHI" | "BUYURTMACHI" |
|---|---|
| Tashkilot nomi : QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ<br>Manzil: Toshkent viloyati Nurafshon sh Mustaqillik ko'chasi<br>Telefon: +99897-770-37-37<br>Faks: ____________<br>STIR kodi: 309212679<br>OKED:<br>X/R: 20208000305481715001<br>Bank: Hamkorbank ATB Nurafshon<br>MFO: 01181<br><br>Direktor: Sh.Jamalov<br>M.O. | Tashkilot nomi: Bulung`ur tuman XTB<br>Manzil: Bulung`ur shahri. Oqtepa ko`chasi 105-uy<br>Tel/Fax: 664422114<br>STIR kodi: 200731249<br>IFUT: 84112<br>Buyurtmachining G`azna shaxsiy hisobvarag`i:<br>SH/V: 401722860182067092100075006<br>Bulung`ur tumani bo`yicha G`aznachilik bo`linmasi<br>YAG`H: 23402000300100001010<br>Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank XKKM<br>MFO:00014 INN 201122919<br><br>Rahbar: Z.Aliqulova<br>M.O. |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

IP1342083078

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **MAHSULOT ETKAZIB BERISh ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bulung‘ur tuman xalq ta'limi tomonidan 31.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bulung‘ur tuman yuridik markazi markaz rahbari:**

**N.A.ABDIYEV**

01.11.2022

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 162493 на приобретение Булунгур туман ХТБ га карашли 42- мактабига тикув машиналари сотиб олиш

Способ проведения электронный

Дата 24.10.2022

Время рассмотрения 24.10.2022 18:40

Закупочная комиссия Булунгур туман ХТМФМТТЭ булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | DJABBAROV AZIZJON AZIMKULOVICH | Ходим | ХТБ |
| **Член комиссии** | SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH | АКТ ни жорий этиш ва ривожлантириш шўъба бошлиғи | Халқ таълими бўлими |
| **Секретарь комиссии** | NORMATOV RABBIMQUL QO'CHQOROVICH | мутахассис | Булунғур Халқ таълими бўлими |
| **Член комиссии** | RAZZAQOV FARHOD MAMARAUF O'G'LI | иктисодчи | хтб |
| **Член комиссии** | G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH | Таълим сифати мониторинги ва аттестация бўлим бошлиғи | Халқ таълими бўлими |
| **Член комиссии** | MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH | бош мухандис | халк таълими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.10.2022 года № лота 162493.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Машины швейные бытовые** |
| Подробное описание | Универсал махсус тикув машинаси |
| Количество товара | 10.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 6 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 60 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Иштирокчи корхона тўғрисида умумий маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхона низоми, гувохнома , Соликдан карзи йуклиги хакида маълумотнома , инсофсиз ижрочиларни ягона реестрида йуклиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 30 | ma'lumot to'liq taqdim qilindi | 30 | Экспертная | | |
| "SAXOVATLI TEMUR" XK | 30 | "SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди. | 30 | Экспертная | | |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 30 | Хужжатлар илова қилинди | 30 | Экспертная | | |
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 30 | Suralgan hujjat taqdim etildi. Baholashda shaffof va aniq yondashishni suraymiz aks holda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasiga murojaat qilamiz. | 30 | Экспертная | | |

Критерий №2 Кафолат муддати

Тип: Текстовое значение

Описание: Махсулотга бериладиган кафолат муддати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 10 | ma'lumot to'liq taqdim qilindi | 10 | Экспертная | | |
| "SAXOVATLI TEMUR" XK | 10 | "SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди. | 10 | Экспертная | | |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 10 | Хужжат илова қилинди | 10 | Экспертная | | |
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 10 | Suralgan hujjat taqdim etildi. Baholashda shaffof va aniq yondashishni suraymiz aks holda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasiga murojaat qilamiz. | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 Коррупцияга қарши талаблар

Тип: Текстовое значение

Описание: 684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 10 | ma'lumot to'liq taqdim qilindi | 10 | Экспертная | | |
| "SAXOVATLI TEMUR" XK | 10 | "SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди. | 10 | Экспертная | | |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 10 | Коррупсияга қаршимиз | 10 | Экспертная | | |
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 10 | Suralgan hujjat taqdim etildi. Baholashda shaffof va aniq yondashishni suraymiz aks holda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasiga murojaat qilamiz | 10 | Экспертная | | |

Критерий №4 Иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Шу сохада олдин килинган ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 20 | ma'lumot to'liq taqdim qilindi | 20 | Экспертная | | |
| "SAXOVATLI TEMUR" XK | 20 | "SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди. | 15 | Экспертная | | |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 20 | Хужжатлар илова қилинди | 15 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 20 | Suralgan hujjat taqdim etildi. Baholashda shaffof va aniq yondashishni suraymiz aks holda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasiga murojaat qilamiz. | 15 | Экспертная | | |

Критерий №5 моддий таъминот

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор моддий таъминланганлиги ва йиллик маблағ айланмаси

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 30 | ma'lumot to'liq taqdim qilindi | 20 | Экспертная | | |
| "SAXOVOTLI TEMUR" XK | 30 | "SAXOVATLI TEMUR" ХК Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди. | 20 | Экспертная | | |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 30 | Хужжатлар илова қилинди | 20 | Экспертная | | |
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 30 | Suralgan hujjat taqdim etildi. Baholashda shaffof va aniq yondashishni suraymiz aks holda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasiga murojaat qilamiz. | 16 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 60 000 000.00 | 55 000 000.00 UZS | 55 000 000.00 | 00.00 | 55 000 000.00 | 21.10.2022 14:56:41 | 20 |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 60 000 000.00 | 59 000 000.00 UZS | 59 000 000.00 | 00.00 | 59 000 000.00 | 20.10.2022 20:23:47 | 18.64407 |
| "SAXOVOTLI TEMUR"XK | 60 000 000.00 | 59 500 000.00 UZS | 59 500 000.00 | 00.00 | 59 500 000.00 | 20.10.2022 13:50:12 | 18.48739 |
| QUALITY | 60 000 | 56 990 000.00 | 56 990 000.00 | 00.00 | 56 990 | 17.10.2022 | 19.30163 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| DEVICE BUSSINES MCHJ | 000.00 | UZS | | | 000.00 | 10:55:41 | |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI | 64.8 | 20 | 84.8 |
| MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ | 68 | 18.64407 | 86.64407 |
| "SAXOVOTLI TEMUR" XK | 68 | 18.48739 | 86.48739 |
| QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ | 72 | 19.30163 | 91.30163 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 162493 от 24.10.2022 года на приобретение Булунгур туман ХТБ га карашли 42- мактабига тикув машиналари сотиб олиш определила победителем:

QUALITY DEVICE BUSSINES MCHJ
309212679

и резервный исполнитель: MF TEXNOLOGYS SYSTEM MCHJ (309657393)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | DJABBAROV AZIZJON AZIMKULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | RAZZAQOV FARHOD MAMARAUF O'G'LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП